



BALETMEYSTERLIK SAN'ATI

Qallibekov Nursultan Jalgasbay uli

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali 2-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: maqolada baletmeysterlik san'ati, uning shakllanish jarayoni hamda raqs san'ati taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Baletmeysterning yaratuvchi, sahnalashtiruvchi, repetitor va pedagog sifatidagi ko'p qirrali faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, raqs asarlarini sahnalashtirishda obraz tanlash, musiqiy talqin, sahna madaniyati hamda ijrochilik mahorati kabi jihatlarining o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: baletmeyster, xoreograf, raqs san'ati, sahnalashtirish, ijrochilik mahorati, obraz, musiqiy talqin, sahna madaniyati, raqs kompozitsiyasi.

Аннотация: В статье рассматривается искусство балетмейстера, процесс его формирования, а также роль в развитии танцевального искусства. Анализируется многогранная деятельность балетмейстера как создателя, постановщика, репетитора и педагога. Кроме того, обосновано значение таких аспектов, как выбор образа при постановке танцевального произведения, музыкальная интерпретация, сценическая культура и исполнительское мастерство.

Ключевые слова: балетмейстер, хореограф, искусство танца, постановка, исполнительское мастерство, образ, музыкальная интерпретация, сценическая культура, танцевальная композиция

Annotation: This article examines the art of the ballet master, the process of its formation, and its role in the development of dance art. The multifaceted professional activities of the ballet master as a creator, choreographer, rehearsal director, and teacher are analyzed. The significance of key aspects such as character selection in dance staging, musical interpretation, stage culture, and performance skills is also substantiated.



Keywords: ballet master, choreographer, dance art, staging, performance skills, character image, musical interpretation, stage culture, dance composition.

XX asr fan-texnika, madaniyat va san'at sohalarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayon ijtimoiy ehtiyojlarning yangilanib, ortib borishiga olib keldi. Natijada jamiyat ushbu ehtiyojlarni qisqa muddatda, samarali va sifatli qondirishni ta'minlay oladigan faoliyat turlarini yo'lga qo'yishni talab qildi. Mazkur rivojlanish san'at sohasida ham, xususan, raqs va baletmeysterlik ijodiyotida yangi tamoyillar va yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Baletmeysterlik san'ati bu davrda nafaqat badiiy ifoda vositasi sifatida, balki insonning ruhiy olamini boyituvchi, estetik didini shakllantiruvchi va jamiyatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim ijodiy faoliyat sifatida rivoj topdi

Baletmeysterlik san'ati – raqs san'ati tizimida eng murakkab va ijodiy yo'nalishlardan biridir. U sahna asarining g'oyaviy mazmunini harakat, plastika va ritm vositalari orqali ochib beruvchi badiiy jarayon sifatida shakllangan. Baletmeyster so'zi fransuzcha *balletmeister* so'zidan olingan bo'lib balet ustasi ya'ni sahna raqsini yaratish, uni sahnalashtirish, kompozitsion tuzilishini ishlab chiqish va ijrochilarning harakatlarini uyg'unlashtirish bilan shug'ullanadigan mutaxassis degan ma'noni bildiradi. Bugungi kunda baletmeysterlik faqat professional balet yoki teatr sahnalarida emas, balki xalq raqslari ansambllari, zamonaviy raqs jamoalari va madaniyat markazlarida ham keng qo'llaniladi. Shu bois, bu san'at turi nafaqat estetik, balki pedagogik va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning estetik va ma'naviy talablaridan kelib chiqqan raqs san'ati takomillashgan sari, qisqa muddat ichida yuksak badiiy saviyadagi sahna asarlarini yuzaga keltirish imkonini berdi. Badiiy ijod jarayonida tarixda yaratilgan sahna asarlarini teatr, musiqa, tasviriy san'at, kino va xoreografiya vositalari orqali yangicha talqinda qayta sahnalashtirishga ijodiy yondashuv an'anasidir. Muayyan sahna-raqs asarini yaratishda obrazni tanlashdan boshlab, uni tomoshabinga



yetkazib berishgacha bo'lgan barcha bosqichlar ushbu badiiy jarayon doirasida amalga oshiriladi. Raqs namunasini qayta ishlab, badiiy jihatdan sayqal berib, uni yanada jozibador va mukammal holga yetkazgan, rivojlantirgan va ommaga taqdim etgan ustoz san'atkorlar raqs san'ati ijodkorlari yoki xoreograf-baletmeysterlar (balet san'ati ustalari) deb ataladi

O'z faoliyatida baletmeyster – yaratuvchi, sahnalashtiruvchi, repetitor (mashq qildiruvchi) va pedagog hisoblanadi. Yaratuvchi sifatida u xoreografik obraz yaratadi. Yaratilayotgan xoreografik obrazning xarakter hususiyati, mazmun-mohiyati imo-ishora, libos va harakatlarda o'z ifodasini topadi.

Sahnalashtiruvchi sifatida baletmeyster raqs kompozitsiyasining umumiy tuzilishini, sahna harakatlari ketma-ketligini, musiqaviy ritm va plastika uyg'unligini belgilaydi. U har bir raqqosa yoki raqqosning sahnadagi o'rnini, harakatlar orasidagi o'tishlarni, sahna maydonining to'g'ri taqsimlanishini va umumiy dramatik rivojlanishni boshqaradi.

Repetitor (mashq qildiruvchi) sifatida esa baletmeyster ijrochilar bilan bevosita ishlaydi. U raqs harakatlarini aniq va to'g'ri bajarishni, obrazning sahnadagi tabiiy va jozibali ifodasini ta'minlaydi. Mashg'ulot jarayonida ijrochilarning texnik mahoratini takomillashtiradi, ritm va plastika uyg'unligini mustahkamlaydi hamda har bir ijrochi qahramonning ichki kechinmasini his eta olishini rag'batlantiradi.

Pedagog sifatida baletmeyster yangi avlod raqqos va raqqosalarini tarbiyalaydi. U raqs maktabi an'analari, milliy xoreografiya qadriyatlari, sahna madaniyati hamda badiiy didni shakllantiradi. Shuningdek, u nafaqat texnika, balki ijodiy tafakkur, sahnaviy his-tuyg'u, badiiy ifoda, jamoaviylik va mas'uliyat kabi fazilatlarining shakllanishiga ham yetakchi ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa baletmeyster o'z faoliyatida nafaqat san'at asarini yaratadi, balki uning mazmuni, badiiy qimmati, estetik qudrati va sahnaviy ta'sirchanligini belgilovchi bosh ijodkor hisoblanadi. Ana shunday ko'p qirrali faoliyat baletmeysterlik san'atining murakkab va mas'uliyatli ekanidan dalolat beradi.



Baletmeyster – sahnalashtiruvchining iste’dodi raqs chizmalarini qanchalik murakkab va qiziqarli tarzda yaratishi bilan ham ko‘rinadi. Baletmeyster-repetitorning vazifasi baletmeyster–yaratuvchi yaratgan va baletmeyster–sahnalashtiruvchi sahnalashtirgan raqsni ijrochilar bilan mashq qilishdan iborat bo‘lib, ularning raqsdagi ijro mahoratini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Yakka, ommaviy raqslar, ulardagi solist ijro etadigan qismlarini meyoriga yetkazib, barcha ijrochilar yuqori saviyada ijro etishlarini ta’minlab beradi. Mashg‘ulot jarayonida yaratuvchi va sahnalashtiruvchi raqsni qanday o‘rgatgan bo‘lsa, hech bir qismiga o‘zi bilganча o‘zgartirish kiritmaydi. Asar muallifi va sahnalashtiruvchi bilan maslahatlashgan holda, ularning roziligi bilan buni amalga oshirishi mumkin.

Baletmeyster-pedagog o‘z sohasi yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi va sohaning nazariy va amaliy jihatlariga e’tibor qaratib ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi. Uni amaliyotga tadbiq etish, yetuk mutaxassislarni yetishtirish kabi muhim vazifalarni bajaruvchi hisoblanadi. U avvalo ustozlar tajribasi, bilim va mahoratini chuqur o‘zlashtirgan holda, shu asosda o‘ziga xos ijodiy uslubini shakllantirishi zarur. Raqs san’ati tarixi, raqsni o‘qitish va o‘rgatish metodlari, ijro mahoratini rivojlantirish hamda raqs texnikasini takomillashtirishga oid masalalarga alohida e’tibor qaratib, puxta pedagogik yondashuvni amalga oshirishi lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, baletmeyster-pedagog baletmeysterlik kasbining barcha to‘rtta sohasini ham mukammal egallagan bo‘lishi kerak.

Tajribali baletmeyster syujetli raqslarni sahnalashtirishda yoki ommaviy kompozitsiyada yakkaxon ijrochini tanlash jarayonida raqqosaning tabiiy iste’dodi, ijrochilik salohiyati, aktyorlik qobiliyati hamda ishga bo‘lgan mas’uliyatli munosabatini inobatga olishi zarur. Shuningdek, sahnada namoyish etiladigan raqs mazmunida aks etadigan voqelikni chuqur o‘rganib, tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bastakor yaratgan kuyda qanday ma’no mujassam ekani, baletmeyster esa mazkur musiqaviy talqin orqali tomoshabinga nimalarni yetkazmoqchi bo‘layotganini raqqosaga singdirib borishi lozim. Buning uchun, albatta, raqqosada



musiqa san'ati haqidagi tasavvurlar, ritmni his etish, raqs harakatlarining musiqa bilan uyg'unlashuvi borasida yetarli bilim va ko'nikma bo'lishi talab etiladi. Qolaversa, dramaturgiya qoidalariga asoslanib sahnalashtirilgan raqsni o'z tasavvurida jonlantira olishi va obrazni o'ziniki qilib olishga erishishi kerak.

Raqs ijrochisi raqsning dramaturgiya qonunlarini bilishi va ijro vaqtida amal qilishi kerak. Chunki kuyning tizimiga terilgan harakatlarni ijro etishda raqqosa o'zining bor vujudini, ya'ni ongini, sezgi organlarini, qo'l-oyog'i, yelkasi, nafas olish organlari, yuzini harakatlantiradi. Buning natijasida ijro texnikasini, mimikasini, qalbini ishga soladi va ularning barchasi bir butun bo'lib raqqosaga obrazni "o'ziniki" qilib olishiga ko'maklashadi.

Dramaturgiya qoidalari, raqs musiqasi, harakatlar va harakatlarni mahorat bilan ijro etilishi – bularning barchasi raqs asarining asosiy tarkibiga kiradi. Baletmeyster raqs ijrochisi bilan obraz ustida ishlar ekan, mashaqqatli mehnat, ijodiy izlanish jarayonlarini o'taydi. Buning natijasida sahnada baletmeyster sahnalashtirgan, raqqosa ijro etayotgan bir siymo yaraladi. Bu ikki ijodkor ijodiy izlanishi, tinimsiz mehnati o'laroq siymoning ichki va tashqi qiyofasi tomoshabin ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Jahon xalq raqslari, raqs san'atining ko'rinishi, qiyofalanishi, ifoda qilinishining g'oyaviy mazmuniga qarab uning insoniyat turmushiga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Raqs san'ati orqali kishilarning ishlab chiqarish mehnati bilan shug'ullanishini, tabiat bilan kurashishini, ma'naviy tafakkurini anglaymiz. Raqs san'atining manbaasi insoniyatning turmush tarzi bo'lishidan qat'iy nazar turmush harakatlarining hammasi ham raqs harakatlari emas. Ammo xoh xalq raqslari bo'lsin, hoh klassik tarixiy raqslari bo'lsin u bir millatning uzoq tarixiy jarayonidagi dini, turmush urf-odatlarini ko'rsatib beradi. Raqs san'atida, hattoki, bir millatning "Salom berish", "Ta'zim qilish" harakati boshqa millatnikiga o'xshamaydi. Turli xil xalqlarning turli janrdagi raqslari turfa kishilarning xarakterlarini yaratishni asos qilib oladi. Hind xalq raqsidagi "Yomg'ir tilash", "Ma'budlarga iltijo qilish", "Oyga



tavallo qilish”, so‘ragan niyatlariga erishganlarida xursand bo‘lish va boshqa xatti-harakatlari buddizmning raqsdagi ifodasi bo‘lganidek, uyg‘ur xalq raqslarini olib qaraydigan bo‘lsak, “Suv”, “Muz”, “Tovus”, “Munojat”, “Samo”, “Pir” va boshqa syujetli raqslar turmush urf-odatlaridagi voqea-hodisalarning, rivoyatlarning shundayligicha diniy e‘tiqod bilan bog‘liq bo‘lganligini ko‘rish mumkin. O‘zbek xalq raqslari ham iltijo qilish, panoh tilash, xudoga nola qilishdek tuyg‘ulardan holi bo‘lmagan. Bunday e‘tiqodlar ozayib, keyinchalik ijtimoiy turmush tarzining rivojlanishi jarayonida raqs san’atiga aylangan.

XXI asrga kelib ilm-fan yutuqlari va texnologiyalar insoniyat ma’naviy olamini o‘zgartirib, ularning badiiy his etish estetikasi masalasida jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bir vaqtlar inson ongi qabul qila olmaydigan voqea hodisalar, badiiy yechim va asarlar bugungi kun hayotida oddiy holga aylanib bormoqda. Bu kabi murakkab jarayonlar barcha san’at turlari singari o‘zbek milliy raqs san’ati masalasida ham jiddiy amaliy choralarni olib borishga turtki bo‘lmoqda. Raqs san’ati bilan bog‘liq bu kabi jarayonlarda ko‘pgina xususiy raqs ansamblari baletmeysterlari rivojlangan davlatlarning badiiy jamoalaridan o‘rnak olishga, ko‘r-ko‘rona jahon tajribasi yutuqlarini milliy raqs namunalariga olib kirishga urinayotganliklarini ham ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi holatlar milliy san’atlar va qadriyatlar kushandasi, ya’ni anti madaniyat har jihatdan o‘zbek milliy raqs san’ati taraqqiyoti jarayonlariga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda. Bu o‘z o‘rnida o‘zbek milliy raqs san’ati taraqqiyoti muammo va kamchiliklarni o‘rtaga chiqarmoqda.

O‘zbek milliy raqs san’ati san’atning eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, uni tasviriy san’at, teatr san’atini vujudga keltirgan ildiz deyish ham mumkin, musiqa esa raqs bilan birga, egiz yashaydi. Raqs ijrochilarining surati va siyrati o‘zi go‘yo uch san’atni badiiy ifoda qiladi: musiqa sadolari ostida go‘yo tasviriy san’at namunasi jonlanadi. Raqs san’ati chinakam nafis san’at ekani o‘zbek milliy raqslarida yaqqol aks etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avdeyeva L.A. Ozbek Milliy raqsi tarixidan. –Тошкент: Mukarrama Turgunboeva nomidagi “O’zbekraqs” milliy raqs birlashmasi, 2001 y.
2. Sayfullaeva D., Kazakbaeva Z. O’zbek raqs san’ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari. –Toshkent: “Voris nashriyoti”, 2006y.
3. Qodirov M.H. Theatrical art of the Timurid era. – T.: San'at, 2007. 54 p.
4. R. Dosmetova N.Abraykulova Raqs darslik- T.: «Barkamol fayz media», 2017
5. ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИЕ И ЦИФРОВЫЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА — Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании» – Махмутходжаева Л.С.